1.9.6.-1.9.30. misollarda berilgan oraliqlar quvvatlari aniqlansin va berilgan tasdiq isbotlansin**.**

1.9.6. [2, 7] **1.9.7.** [3, 9] **1.9.8.** [4, 7] **1.9.9.** [5, 12] **1.9.10.** (1, 4)

1.9.11. (2, 7) **1.9.12.** (3, 6) **1.9.13.** (4, 10) **1.9.14.** (0, 7) **1.9.15.** (-∞, 0)

1.9.16. (-∞, -2) **1.9.17.** (-∞, +1) **1.9.18.** (-∞, +2) **1.9.19.** (-∞, -3) **1.9.20.** (0, +∞)

1.9.21. (+4, +∞) **1.9.22.** (+2, +∞) **1.9.23.** (+5, +∞) **1.9.24.** (+3, +∞)

1.9.25. (-∞, -4] **1.9.26.** (-∞, -1] **1.9.27.** [5, +∞) **1.9.28.** (-3, +4]

1.9.29. [-1, +3) **1.9.30.** [-4, +5)

0-topshiriqning ishlanishi:

1.9.0. [1, 5] kesma quvvati aniqlash uchun [1;5] kesma bilan [0;1] kesma o‘rtasida o‘zaro bir qiymatli moslik o‘rnatish lozim. $f(x) = \frac{x}{4} - \frac{1}{4}$ funksiya [1;5] oraliqni [0;1] oraliqqa akslantiruvchi biyektiv funksiya bo‘ladi (ushbu tasdiqni isbotlash talabaga vazifa). Shunday qilib, [1;5] kesmaning tartibi [0;1] kesma tartibiga teng, [0;1] kesmaning quvvati esa continuumga teng. $|[1;5]| = |[0;1]| = \hat{c}$ - continuum ga tengligni isbotladik.

1.10. Funksiyalar kompozitsiyasi.

Quyida keltirilgan *f, g*: R→R funksiyalar uchun *f*g, g*f* kompozitsiyalar aniqlansin?

1.10.0. $f(x) = \begin{cases} x^3 & agar \ |x| > 1 \ bo'lsa \\ -x & agar \ |x| \le 1 \ bo'lsa \end{cases}$ $g(x) = \begin{cases} x & agar \ x > 8 \ bo'lsa, \\ 2 - x & agar \ |x| \le 8 \ bo'lsa, \\ 2 + x & agar \ x < -8 \ bo'lsa. \end{cases}$

1.10.1. $f(x) = \begin{cases} 1 + x, & agar \ x \ge 0 \ bo'lsa, \\ 1 - x & agar \ x < 0 \ bo'lsa. \end{cases}$ $g(x) = \begin{cases} 1 + x & agar \ x \ge 1 \ bo'lsa, \\ 2 * x & agar \ x < 1 \ bo'lsa. \end{cases}$

1.10.2. $f(x)=\begin{cases} x^2, & \text{agar } x \ge 1 \text{ bo' lsa,} \\ x & \text{agar } x < 1 \text{ bo' lsa.} \end{cases}$ $g(x)=\begin{cases} |x| & \text{agar } x < 2 \text{ bo' lsa,} \\ 4-x & \text{agar } x \ge 2 \text{ bo' lsa.} \end{cases}$

1.10.3. $f(x)=\begin{cases} x^2, & \text{agar } x \le 1 \text{ bo' lsa,} \\ e^{-x+1} & \text{agar } x > 1 \text{ bo' lsa.} \end{cases}$ $g(x)=\begin{cases} \cos x & \text{agar } x < 0 \text{ bo' lsa,} \\ 2x+1 & \text{agar } x \ge 0 \text{ bo' lsa.} \end{cases}$

1.10.4. $f(x)=\begin{cases} \sin x, & \text{agar } x \le 0 \text{ bo' lsa,} \\ -x & \text{agar } x > 0 \text{ bo' lsa.} \end{cases}$ $g(x)=\begin{cases} -x-1 & \text{agar } x < -1 \text{ bo' lsa,} \\ -x^2+1 & \text{agar } x \ge -1 \text{ bo' lsa.} \end{cases}$

1.10.5. $f(x)=\begin{cases} x^3, & \text{agar } x \le 1 \text{ bo' lsa,} \\ -x+2 & \text{agar } x > 1 \text{ bo' lsa.} \end{cases}$ $g(x)=\begin{cases} -x^2 & \text{agar } x < -1 \text{ bo' lsa,} \\ \sin x & \text{agar } x \ge -1 \text{ bo' lsa.} \end{cases}$

1.10.6. $f(x)=\begin{cases} 3x+1, & \text{agar } x \le 0 \text{ bo' lsa,} \\ x^2+1 & \text{agar } x > 0 \text{ bo' lsa.} \end{cases}$ $g(x)=\begin{cases} |x| & \text{agar } x < 1 \text{ bo' lsa,} \\ -(x-1)^2+1 & \text{agar } x \ge 1 \text{ bo' lsa.} \end{cases}$

1.10.7. $f(x)=\begin{cases} x+1, & \text{agar } x \le 0 \text{ bo' lsa,} \\ -x+1 & \text{agar } x > 0 \text{ bo' lsa.} \end{cases}$ $g(x)=\begin{cases} -x-2 & \text{agar } x < -2 \text{ bo' lsa,} \\ x+2 & \text{agar } x \ge -2 \text{ bo' lsa.} \end{cases}$

1.10.8. $f(x)=\begin{cases} \cos x, & \text{agar } x \le 0 \text{ bo' lsa,} \\ -x^2+1 & \text{agar } x > 0 \text{ bo' lsa.} \end{cases}$ $g(x)=\begin{cases} \sin x & \text{agar } x < \dfrac{\pi}{2} \text{ bo' lsa,} \\ -x+\pi & \text{agar } x \ge \dfrac{\pi}{2} \text{ bo' lsa.} \end{cases}$

1.10.9. $f(x)=\begin{cases} -|x|, & \text{agar } x \le 1 \text{ bo' lsa,} \\ x-2 & \text{agar } x > 1 \text{ bo' lsa.} \end{cases}$ $g(x)=\begin{cases} x^2 & \text{agar } x < 0 \text{ bo' lsa,} \\ -|x-1|+1 & \text{agar } x \ge 0 \text{ bo' lsa.} \end{cases}$

1.10.10. $f(x)=\begin{cases} |x|, & \text{agar } x \le 1 \text{ bo' lsa,} \\ -x+2 & \text{agar } x > 1 \text{ bo' lsa.} \end{cases}$ $g(x)=\begin{cases} x+2 & \text{agar } x < -1 \text{ bo' lsa,} \\ x^2 & \text{agar } x \ge -1 \text{ bo' lsa.} \end{cases}$

1.10.11. $f(x)=\begin{cases} -x, & \text{agar } x \le 0 \text{ bo' lsa,} \\ \ln(x+1) & \text{agar } x > 0 \text{ bo' lsa.} \end{cases}$ $g(x)=\begin{cases} x+2 & \text{agar } x < -1 \text{ bo' lsa,} \\ x^2 & \text{agar } x \ge -1 \text{ bo' lsa.} \end{cases}$

1.10.12. $f(x)=\begin{cases} |x+1|, & \text{agar } x \le 0 \text{ bo' lsa,} \\ |x-1| & \text{agar } x > 0 \text{ bo' lsa.} \end{cases}$ $g(x)=\begin{cases} x^2 & \text{agar } x < 1 \text{ bo' lsa,} \\ -(x-1)^2+1 & \text{agar } x \ge 1 \text{ bo' lsa.} \end{cases}$

1.10.13. $f(x)=\begin{cases} 1+x, & \text{agar } x \ge 0 \text{ bo' lsa,} \\ 1-x & \text{agar } x < 0 \text{ bo' lsa.} \end{cases}$ $g(x)=\begin{cases} |x| & \text{agar } x < 2 \text{ bo' lsa,} \\ 4-x & \text{agar } x \ge 2 \text{ bo' lsa.} \end{cases}$

1.10.14. $f(x)=\begin{cases} x^2, & \text{agar } x \ge 1 \text{ bo' lsa,} \\ x & \text{agar } x < 1 \text{ bo' lsa.} \end{cases}$ $g(x)=\begin{cases} \cos x & \text{agar } x < 0 \text{ bo' lsa,} \\ 2x+1 & \text{agar } x \ge 0 \text{ bo' lsa.} \end{cases}$

1.10.15. $f(x)=\begin{cases} x^2, & \text{agar } x \le 1 \text{ bo' lsa,} \\ e^{-x+1} & \text{agar } x > 1 \text{ bo' lsa.} \end{cases}$ $g(x)=\begin{cases} -x-1 & \text{agar } x < -1 \text{ bo' lsa,} \\ -x^2+1 & \text{agar } x \ge -1 \text{ bo' lsa.} \end{cases}$

1.10.16. $f(x)=\begin{cases}\sin x, & \text{agar } x \le 0 \text{ bo' lsa,}\\ -x & \text{agar } x > 0 \text{ bo' lsa.}\end{cases}$ $g(x)=\begin{cases}-x^2 & \text{agar } x < -1 \text{ bo' lsa,}\\ \sin x & \text{agar } x \ge -1 \text{ bo' lsa.}\end{cases}$

1.10.17. $f(x)=\begin{cases}x^3, & \text{agar } x \le 1 \text{ bo' lsa,}\\ -x+2 & \text{agar } x > 1 \text{ bo' lsa.}\end{cases}$ $g(x)=\begin{cases}-x-2 & \text{agar } x < -2 \text{ bo' lsa,}\\ x+2 & \text{agar } x \ge -2 \text{ bo' lsa.}\end{cases}$

1.10.18. $f(x)=\begin{cases}3x+1, & \text{agar } x \le 0 \text{ bo' lsa,}\\ x^2+1 & \text{agar } x > 0 \text{ bo' lsa.}\end{cases}$ $g(x)=\begin{cases}-x^2 & \text{agar } x < -1 \text{ bo' lsa,}\\ \sin x & \text{agar } x \ge -1 \text{ bo' lsa.}\end{cases}$

1.10.19. $f(x)=\begin{cases}x+1, & \text{agar } x \le 0 \text{ bo' lsa,}\\ -x+1 & \text{agar } x > 0 \text{ bo' lsa.}\end{cases}$ $g(x)=\begin{cases}\sin x & \text{agar } x < \dfrac{\pi}{2} \text{ bo' lsa,}\\ -x+\pi & \text{agar } x \ge \dfrac{\pi}{2} \text{ bo' lsa.}\end{cases}$

1.10.20. $f(x)=\begin{cases}\cos x, & \text{agar } x \le 0 \text{ bo' lsa,}\\ -x^2+1 & \text{agar } x > 0 \text{ bo' lsa.}\end{cases}$ $g(x)=\begin{cases}x+2 & \text{agar } x < -1 \text{ bo' lsa,}\\ x^2 & \text{agar } x \ge -1 \text{ bo' lsa.}\end{cases}$

1.10.21. $f(x)=\begin{cases}-|x|, & \text{agar } x \le 1 \text{ bo' lsa,}\\ x-2 & \text{agar } x > 1 \text{ bo' lsa.}\end{cases}$ $g(x)=\begin{cases}x+2 & \text{agar } x < -1 \text{ bo' lsa,}\\ x^2 & \text{agar } x \ge -1 \text{ bo' lsa.}\end{cases}$

1.10.22. $f(x)=\begin{cases}-x, & \text{agar } x \le 0 \text{ bo' lsa,}\\ \ln(x+1) & \text{agar } x > 0 \text{ bo' lsa.}\end{cases}$ $g(x)=\begin{cases}x^2 & \text{agar } x < 1 \text{ bo' lsa,}\\ -(x-1)^2+1 & \text{agar } x \ge 1 \text{ bo' lsa.}\end{cases}$

1.10.23. $f(x)=\begin{cases}|x+1|, & \text{agar } x \le 0 \text{ bo' lsa,}\\ |x-1| & \text{agar } x > 0 \text{ bo' lsa.}\end{cases}$ $g(x)=\begin{cases}|x| & \text{agar } x < 2 \text{ bo' lsa,}\\ 4-x & \text{agar } x \ge 2 \text{ bo' lsa.}\end{cases}$

1.10.24. $f(x)=\begin{cases}1+x, & \text{agar } x \ge 0 \text{ bo' lsa,}\\ 1-x & \text{agar } x < 0 \text{ bo' lsa.}\end{cases}$ $g(x)=\begin{cases}-x-1 & \text{agar } x < -1 \text{ bo' lsa,}\\ -x^2+1 & \text{agar } x \ge -1 \text{ bo' lsa.}\end{cases}$

1.10.25. $f(x)=\begin{cases}x^2, & \text{agar } x \ge 1 \text{ bo' lsa,}\\ x & \text{agar } x < 1 \text{ bo' lsa.}\end{cases}$ $g(x)=\begin{cases}-x-1 & \text{agar } x < -1 \text{ bo' lsa,}\\ -x^2+1 & \text{agar } x \ge -1 \text{ bo' lsa.}\end{cases}$

0-topshiriqning ishlanishi

1.10.0. 1) Kompozitsiya – akslantirishlarni birin-ketin qo‘llashdir. *g*f* kompozitsiyada birinchi bo‘lib ***f*** akslantirish, ikkinchi ***g*** akslantirish ta‘sir qiladi. Shuning uchun ham ***f*** akslantirish aniqlanish sohasini qanday sohaga akslantirishini, ya‘ni ***f(X)*** to‘plamni aniq tasavvur qilish lozim. Nafaqat hosil bo‘lgan to‘plam, balki ***f*** ning aniqlanish sohasi ham ***g*** ning berilishiga qarab qismlarga bo‘linadi.

f ning berilishini modul belgisini olib tashlab yozib olamiz:

$$f(x)=\begin{cases} x^3, & \text{agar } x > 1; \\ -x, & \text{agar } -1 \le x \le 1 \\ x^3, & \text{agar } x < -1. \end{cases}$$

1. agar $x \in (1,+\infty)$ bo‘lsa, u holda f akslantirish x^3 qoida bo‘yicha ta‘sir qilib, (1,+∞) oraliqni (1,+∞) oraliqqa akslantiradi. Hosil bo‘lgan to‘plamda esa g akslantirish yuqori va o‘rta qator bilan aniqlanadi, Qachon qaysi qator ta’sir qilishini aniqlash uchun boshlang‘ich to‘plamni x=2 nuqta bilan ikkita to‘plam ostiga ajratamiz: $(1,+\infty)=(1,2]\cup(2,+\infty)$

   f((1, 2])=(1,8] ushbu oraliqda esa ***g(x)=2-x***, ***f***((2,+∞))=(8,+∞) usbu oraliqda esa ***g(x)=x.*** Shunday qilib,

$$(g * f)(x)=\begin{cases} x^3, & \text{agar } x \in (2,+\infty) \text{ bo' lsa;} \\ 2-x^3 & \text{agar } x \in (1,2] \end{cases}$$

2. Agar $x\in[-1,+1]$ bo‘lsa, u holda f([-1,+1])=[-1,+1] ushbu to‘plam esa to‘laligicha g ning o‘rta qator aniqlanishiga tushadi. Demak,

$$(g * f)(x) = 2-(-x) = 2+x, \quad \text{agar } x \in [-1,+1] \text{ bo' lsa.}$$

3. Agar $x\in(-\infty,-1)$ bo‘lsa, u holda f((-∞,-1))=(-∞,-1) ushbu to‘plamda esa g akslantirish o‘rta va quyi qatorlar bilan aniqlanadi, shuning uchun boshlang‘ich to‘plamni ikki qismga ajratamiz: $(-\infty,-1)=(-\infty,-2)\cup[-2,-1)$. Ushbu bo‘laklarning har birini alohida ko‘rib chiqamiz:

   f((-∞,-2))=(-∞,-8) ushbu oraliqda esa g(x)=2+x kabi aniqlanadi. Demak,

$$(g * f)(x) = 2+x^3, \quad \text{agar } x \in (-\infty,-2) \text{ bo' lsa.}$$

   f([-2,-1))=[-8,-1) ushbu oraliqda esa g(x)=2-x kabi aniqlanadi. Demak,

$$(g * f)(x) = 2-x^3, \quad \text{agar } x \in [-2,-1) \text{ bo' lsa.}$$

   Shunday qilib oxirgi natija quyidagi ko‘rinishni oladi:

$$(g * f)(x)=\begin{cases} x^3, & \text{agar } x \in (2,+\infty) \\ 2-x^3, & \text{agar } x \in [-2,-1) \cup (1,2] \\ 2+x, & \text{agar } x \in [-1,+1] \text{ bo' lsa,} \\ 2+x^3, & \text{agar } x \in (-\infty,-2) \text{ bo' lsa.} \end{cases}$$

f*g kompozitsiya ham shunga o‘xshash prinsipda amalga oshiriladi.

2. KOMBINATORIKA ELEMENTLARI.

2.1. Kombinatorikaning asosiy qoidalari.

Kombinatorikaning 1-qoidasi: *Agar qandaydir* ***A*** *tanlashni* ***m*** *usul bilan, bu usullarning har biriga biror bir boshqa* ***B*** *tanlashni* ***n*** *usulda amalga oshirish mumkin bo‘lsa, u holda* ***A va B*** *tanlashni (ko‘rsatilgan tartibda)* $m \times n$ *usulda amalga oshirish mumkin.*

Kombinatorikaning 2-qoidasi: *Aytaylik birin-ketin* ***k*** *ta harakatni amalga oshirish talab qilngan bo‘lsin. Agar birinchi harakatni -* n_1 *usulda, ikkinchi harakatni -* n_2 *usulda, va hokazo* ***k*** *– harakatni -* n_k *usulda amalga oshirish mumkin bo‘lsa, u holda barcha* ***k*** *ta harakatni*

$$n_1 \times n_2 \times n_3 \times ... \times n_k$$

usulda amalga oshirish mumkin bo‘ladi.

$p_1, p_2, ..., p_n$ – turli sodda sonlar, $\alpha_1, \alpha_2, ..., \alpha_n$ qandaydir natural sonlar bo‘lgan quyida berilgan son

$$m = p_1^{\alpha_1} \times p_2^{\alpha_2} \times ... \times p_n^{\alpha_n}$$

$(\alpha_1 + 1) \times (\alpha_2 + 1) \times .... \times (\alpha_n + 1)$ ta umumiy bo‘luvchiga ega;

2.1.0.-2.1.10. 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6 raqamlardan quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi nechta to‘rt xonali son tuzish mumkin?

2.1.0. son raqamlari har xil; **2.1.1.** raqamlar takrorlanishi mumkin;

2.1.2. sonlar juft; **2.1.3.** sonlar 5 ga bo‘linadi; **2.1.4.** sonlar 4 ga bo‘linadi;

2.1.5. sonning barcha raqamlari toq; **2.1.6.** sonlar 3 ga bo‘linadi;

2.1.7. sonlar 6 ga bo‘linadi; **2.1.8.** sonlar 7 ga bo‘linadi;

2.1.9. sonlar 11 ga bo‘linadi; **2.1.10.** sonalar 10 ga bo‘linadi;

2.1.11. Aholi punktida 1500 ta odam yashaydi. Ularning hech bo‘lmaganda ikkitasi bir xil initsiallarga ega bo‘lishini isbotlang?

2.1.12. Chapdan o‘ngga va o‘ngdan chapga qarab o‘qilganda ham bir xil bo‘lgan nechta besh xonali son mavjud? (Masalan 67876, 17071)

2.1.13. Tog‘ cho‘qqisiga 7 ta so‘qmoq olib boradi. Alpinist nechta xil usulda chiqib tushishi mumkin? Chiqqan yo‘lidan tushishi mumkin bo‘lmasachi?

Quyida berilgan sonlar nechta turli bo‘luvchilarga ega?

2.1.14. 735000; **2.1.15.** 147000; **2.1.16.** 17640; 2**.1.17.** 105000;

2.1.18. 2520; **2.1.19.** 5400; **2.1.20.** 126000; **2.1.21.** 12600;

2.1.22. 3360; **2.1.23.** 3780; **2.1.24.** 98784; **2.1.25.** 10584; **2.1.26.** 29400;

2.1.27. 17640; **2.1.28.** 63000; **2.1.29.** 555660; **2.1.30.** 252000;

0-topshiriqning ishlanishi

2.1.0. Son raqamlari har xil.

1-usul. Tuziladigan son 4 xonali son bo‘lishi uchun birinchi raqami 1,2,3,4,5,6 olti xil bo‘lishga haqqi bor (0 bo‘lishga haqqi yo‘q, faraz qilaylik 5 chiqdi deylik), ikkinchi raqam ham olti xil bo‘lishga haqqi bor bular: 0 va 1,2,3,4,6 raqamlarning qaysidir biri (faraz qilaylik 2 chiqdi deylik), uchinchi raqam esa besh xil bo‘lishga haqqi bor, bular 0,1,3,4,6 raqamlarning qaysidir biri (faraz qilaylik 1 chiqdi deylik), to‘rtinchi raqam esa to‘rt xil bo‘lishga haqqi bor, bular 0,3,4,6. Kombinatorikaning ikkinchi asosiy qoidasiga ko‘ra barcha tanlanishlar soni har bir raqamni tanlashlar sonlarining ko‘paytmalariga teng. Shunday qilib yuqoridagi shartlarni bajaruvchi 4 xonali sonlar 6*6*5*4=720 ta bo‘ladi.

2-usul. Faraz qilaylik 4 ta g‘ildirak berilgan bo‘lib bu g‘ildiraklarning har biriga 0 dan 6 gacha bo‘lgan raqamlar yozilgan bo‘lsin. Birinchi g‘ildirakdan 0 raqamini o‘chiramiz, chunki birinchi g‘ildirakda 0 raqami chiqib qolsa tuzilgan son to‘rt xonali bo‘lmay qoladi. Shunda birinchi g‘ildirak olti xil bo‘ishga haqqi bor. Ikkinchi g‘ildirakda 0 raqami qo‘shiladi, lekin birinchi gildirakda tushgan qaysidir 0 dan farqli raqam o‘chirib qo‘yiladi. Uchinchi g‘ildirakdan esa birinchi va ikkinchi g‘ildirakda tushgan raqamlar o‘chiriladi, keyin aylantiramiz u holda uchinchi g‘ildirakda 5 xil imkoniyat qoladi. To‘rtinchi g‘ildirakdan birinchi, ikkinchi, uchinchi g‘ildirakda tushgan raqamlar o‘chiriladi, u holda to‘rti g‘ildirak aylantirilganda uning uchun 4 xil imkoniyat qoladi. Shunday qilib Kombinatorikaning ikkinchi asosiy qoidasiga ko‘ra raqamlari 0,1,2,3,4,5,6 raqamlardan iborat va turli xil raqamlardan iborat to‘rt xonali sonlar har bir

g‘ildirakda chiqishi mumkin bo‘lgan imkoniyatlari ko‘paytmasiga teng. Shunday qilib yuqoridagi shartni bajaruvchi to‘rt xonali sonlar 6*6*5*4=720 ta bo‘ladi.

2.2. Berilgan to‘plamning *k*-elementli to‘plam ostilari soni.

n – elementli to‘plamning barcha *k* – elementli to‘plam ostilar soni

$$C_n^k = \frac{n!}{k!*(n-k)!}$$

teng bo‘ladi.

n – elementli to‘plamning ixtiyoriy *k* – elementli to‘plam ostilari ***n – elementdan k tadan guruhlash*** deb nomlanadi. Ayrim hollarda guruhlash so‘zining o‘rniga ***kombinatsiya n elementdan k tadan*** termini ham ishlatiladi.

2.2.0. 30 ta talabadan 20 tasi o‘g‘il bolalar, tavakkaliga jurnal nomeri bo‘yicha 5 talaba chaqirildi, ularning ichida ko‘pi bilan 3 tasi o‘g‘il bola bo‘ladigan qilib necha xil usulda tanlash mumkin?

2.2.1. Xonada ***n*** ta chiroq bor. ***k*** ta chiroqni yoqib xonani necha xil usulda yoritish mumkin? Xonani hammasi bo‘lib necha xil usulda yoritish mukin?

2.2.2 ***n*** ta nuqta berilgan, ularning ixtiyoriy 3 tasi bitta chiziqda yotmaydi. Ixtiyoriy ikkita nuqtani tutashtirib nechta chiziq o‘tqazish mumkin?

2.2.3. Har bir keyingi raqami oldingisidan katta bo‘lgan nechta 4 xonali sonni tuzish mumkin?

2.2.4. Har bir keyingi raqami oldingisidan kichik bo‘lgan nechta 4 xonali sonni tuzish mumkin?

2.2.5. Xalqaro komissiya 9 kishidan iborat. Komissiya materiallari seyfda saqlanadi. Kamida 6 kishi yig‘ilgandagina seyfni ochish imkoni bo‘lishi uchun, seyf nechta qulfdan iborat bo‘lishi kerak va ular uchun nechta kalit tayyorlash kerak va ularni komissiya a’zolari o‘rtasida qanday taqsimlash kerak?

Masala: Kitob javonida tasodifiy tartibbda 15 ta darslik terilgan bo‘lib, ularning 9 tasi o‘zbek tilida, 6 tasi rus tilida. Tavakkaliga 7 ta darslik olindi.

2.2.6. Olingan darsliklarning roppa-rosa 4 tasi o‘zbekcha, 3 tasi ruscha bo‘ladigan qilib necha xil usulda tanlab olish mumkin?

2.2.7. Olingan darsliklarning ko‘pchiligi o‘zbekcha bo‘ladigan qilib necha xil usulda tanlab olish mumkin?

2.2.8. Olingan darsliklarning kamchiligi o‘zbekcha bo‘ladigan qilib necha xil usulda tanlab olish mumkin?

2.2.9. Olingan darsliklarning ko‘pchiligi ruscha bo‘ladigan qilib necha xil usulda tanlab olish mumkin?

2.2.10. Olingan darsliklarning kamchiligi ruscha bo‘ladigan qilib necha xil usulda tanlab olish mumkin?

2.2.11. Olingan darsliklarning o‘zbekchalari 2 tadan kam bo‘ladigan qilib necha xil usulda tanlab olish mumkin?

2.2.12. Olingan darsliklarning o‘zbekchalari 2 tadan ko‘p bo‘ladigan qilib necha xil usulda tanlab olish mumkin?

2.2.13. Olingan darsliklarning o‘zbekchalari ko‘pi bilan 2 ta bo‘ladigan qilib necha xil usulda tanlab olish mumkin?

2.2.14. Olingan darsliklarning o‘zbekchalari kamida 2 ta bo‘ladigan qilib necha xil usulda tanlab olish mumkin?

2.2.15. Olingan darsliklarning ruschalari 3 tadan ko‘p bo‘ladigan qilib necha xil usulda tanlab olish mumkin?

2.2.16. Olingan darsliklarning ruschalari 3 tadan kam bo‘ladigan qilib necha xil usulda tanlab olish mumkin?

2.2.17. $C_n^1 + C_n^3 + C_n^5 + \ldots$ yig‘indi hisoblansin.

2.2.18. $C_n^0 + C_n^4 + C_n^8 + \ldots$ yig‘indi hisoblansin.

2.2.19. Qavariq ***n*** **–** burchak dioganallari nechta nuqtada kesishadi, agar ularning ixtiyoriy 3 tasi bir nuqtada kesishmasa.

2.2.20. Necha xil usulda 5 ta kitobdan 3 tadan qilib tanlab olish mumkin?

2.2.21. Necha xil usulda 7 odamdan 3 kishidan qilib komissiya tuzish mumkin?

2.2.22. Turnirda ***n*** ta shaxmatchi qatnashdi, agar ixtiyoriy 2 ta shaxmatchi o‘zaro

faqat bir marta uchrashgan bo‘lsa, turnirda nichta partiya o‘yin o‘tqazilgan?

2.2.23.-2.2.30. misollarda keltirilgan tengliklar isbotlansin.

2.2.23. $C_n^0 - C_n^1 + C_n^2 - ... + (-1)^n C_n^n = 0$ **2.2.24.** $C_{n+m}^n = C_{n+m}^m$

2.2.25. $C_n^k = C_{n-1}^k + C_{n-1}^{k-1}$ **2.2.26.** $C_{2n}^n = (C_n^0)^2 + (C_n^1)^2 + ... + (C_n^n)^2$

2.2.27. $C_n^0 + C_n^1 + ... + C_n^n = 2^n$ **2.2.28.** $C_n^0 = C_n^n$ **2.2.29.** $C_n^1 = C_n^{n-1}$

2.2.30. $C_n^k = C_n^{n-k}$

0-topshiriqning ishlanishi.

2.2.0. Masala shartida qo‘yilgan murakkab to‘plamni sodda to‘plamlar yig‘indisi ko‘rinishida yozib olamiz:

A={0 tasi o‘g‘il bola, 5 tasi qiz bola} B={1 tasi o‘g‘il bola, 4 tasi qiz bola }

C={2 tasi o‘g‘il bola, 3 tasi qiz bola } D={3 tasi o‘g‘il bola, 2 tasi qiz bola }

{Ko‘pi bilan 3 tasi o‘g‘il bola}=$A \cup B \cup C \cup D$ kesidhmaydigan to‘plamlar yig‘indisining quvvati, ushbu to‘plamlar quvvatlari yig‘indisiga teng bo‘ladi:

n({Ko‘pi bilan 3 tasi o‘g‘il bola})=n($A \cup B \cup C \cup D$)=n(A)+n(B)+n(C)+n(D)=

$$= C_{20}^0 * C_{10}^5 + C_{20}^1 * C_{10}^4 + C_{20}^2 * C_{10}^3 + C_{20}^3 * C_{10}^2 = 1 * \frac{10!}{5!*5!} + \frac{20!}{1!*19!} * \frac{10!}{4!*6!} + \frac{20!}{2!*18!} * \frac{10!}{3!*7!} +$$

$$+ \frac{20!}{3!*17!} * \frac{10!}{2!*8!} = 504 + 4200 + 190*120 + 1140*45 = 26.478.900$$ ta usulda tanlash mumkin.

Turli xil kombinator masalarni hisoblashda C_n^k larni hisoblash murakkablashsa yoki, ko‘p miqdordagi bunday koeffitsiyentlarni hisobl



ashga to‘g‘ri kelsa, ushbu hisoblarni Excel dasturlar paketidagi ЧИСЛКОМБ komandasi orqali hisoblash ham mumkin. Masalan C_{25}^{18}=480700 ni hisoblash hech qanday qiyinchilik tug‘dirmaydi.

2.3. O‘rin almashtirishlar. Berilgan to‘plamning tartiblashtirilgan to‘plam ostilari (joylashtirish)

Teorema. ***n*** ta elementdan iborat A to‘plam uchun Faqat elementlar tartibi bilan farq qiladigan turli tartiblashtirilgan turli to‘plamlar ushbu to‘plamninig ***o‘rin almashtirishi*** deyiladi va

$$P_n = n!$$

bo‘ladi.

Teorema. *n* ta elementdan iborat to‘plamning tartiblashtirilgan *k* – elementli to‘plam ostilari soni

$$A_n^k = k! * C_n^k = \frac{n!}{(n-k)!} = n * (n-1) * (n-2) * .... * (n-(k-1))$$

ta bo‘ladi. *n* elementli to‘plamning tartiblashtirilgan *k*-elementli to‘plam ostilari *n* ta elementdan *k* tadan ***joylashtirish*** deyiladi.

2.3.0. *n* ta elementdan berilgan ikkita elementi yonma-yon turmaydigan nechta o‘rin almashtirish yasash mumkin.

2.3.1. Tokchada 5 ta kitobni necha xil usulda joylashtirish mumkin?

2.3.2. {1, 2, 3, ... , 2*n*} to‘plam elementlarini juft sonlari juft o‘rinlarda keladigan qilib necha xil usulda tartiblashtirish mumkin?

2.3.3. 36 ta karta aralashtirilganda 4 ta “Tuz” bir joyda keladigan variantlar soni nechta?

2.3.4. Shaxmat taxtasida 8 xil rangdagi “To‘ra” ni bir-birini urmaydigan qilib nechta xil usulda o‘rin almashtirish mumkin?

2.3.5. 1, 2, 3 raqamlari qatnashgan nechta uch xonali son mavjud?

2.3.6. 36 ta karta aralashtirilganda 4 ta “Tuz” va 4 ta “Valet” bir joyda keladigan variantlar soni nechta?

2.3.7. 36 ta karta aralashtirilganda necha xil variant mavjud?

2.3.8. “Bum-Bum” qabilasi alifbosida 6 ta harf mavjud. Hech bo‘lmaganda 2 ta bir xil harfi bor 6 ta harfdan iborat ketma-ketlikgina so‘z hisoblansa, “Bum-Bum” qabilasi tilida nechta so‘z bor?

2.3.9. 1, 2, 3 raqamlari yonma-yon va o‘sish tartibida keladigan qilib $\{1,2,3,\ldots n\}$ to‘plamni tartiblashtirish mumkin?

2.3.10. Stipendiya uchun 5 ta sardor kassaga necha xil usulda navbatga turishlari mumkin?

2.3.11. Majlisda 4 kishi A, B, C, D lar so‘zga chiqishi lozim. Agar B kishi A so‘zga chiqmasdan oldin so‘zga chiqishi mumkin bo‘lmasa, Necha xil usulda notiqlar ro‘yxatini tuzish mumkin?

2.3.12. Doira shaklidagi stol atrofiga n ta mehmonni necha xil usulda joylashtirish mumkin?

2.3.13. Talaba 4 ta imtixonni 7 kun davomida topshirishi kerak. Buni necha xil usulda amalga oshirish mumkin? Agar oxirgi imtixon 7-kun topshirilishi aniq bo‘lsachi?

2.3.14. Futbol chempionatida 16 ta jamoa qatnashadi. Jamoalarning oltin, kumush, bronza medallar va oxirgi ikkita o‘rinni egallaydigan variantlari nechta bo‘ladi?

2.3.15. 5 ta talabani 10 ta joyga necha xil usulda joylashtirib chiqish mumkin?

2.3.16. Ikkinchi kurs talabalari 3-semestrda 10 xil fan o‘tishadi. Dushanba kuni 4 ta har xil fandan darsni necha xil usulda dars jadvaliga qo‘yish mumkin?

2.3.17. Matbuot do‘konida 5xil ko‘rinishdagi konvert, 4 xil ko‘rinishdagi marka sotilayapti. Necha xil usulda marka va convert sotib olish mumkin?

2.3.18. Disketalar saqlaydigan quti 12 ta nomerlangan joydan iborat. Talaba 10 ta turli xil disketalarini qutiga necha xil usulda joylashtirishi mumkin? 8 tanichi?

2.3.19. Futbol jamoasida 11 ta futbolchi ichidan jamoa sardori va sardor o‘rin bosarini necha xil usulda tanlash mumkin?

2.3.20. Agar oq qog‘oz varrog‘ini 180 gradusga burilsa o, 1, 8 raqamalri o‘zgarmaydi, 6 va 9 raqamlari bir-biriga o‘tadi, boshqa raqamlar esa ma’nosini yo‘qotadi. 180 gradusga burilganda miqdori o‘zgarmaydigan nechta 7 xonali son mavjud?

2.3.21. Futbol bo‘yicha Oliy liga O‘zbekiston chempionatida 16 ta jamoa qatnashadi, oltin, kumush, bronza medallarni va oily ligani tark etuvchi 2 ta jamoani bo‘lishi mumkin bo‘lgan nazariy variantlari necha xil bo‘lishi mumkin?

2.3.22. Oliy o‘quv yurtining ma’lum bir yo‘nalishiga 10 kishi qabul qilinishi aniq bo‘lib, ushbu yo‘nalishga 14 ta abituriyent hujjat topshirgan bo‘lsa, o‘qishga kirgan abituriyentlar ro‘yxati necha xil bo‘lishi mumkin?

Masala: U={*a,b,c,d,e*} to‘plamda quyidagicha shartlarni bajaruvchi nechta k ta elementli qism to‘plam tuzish mumkin?

2.3.23. k=2 elementli takrorlanmaydigan o‘rin almashtirishlar soni?

2.3.24. k=3 elementli takrorlanmaydigan o‘rin almashtirishlar soni?

2.3.25. k=4 elementli takrorlanmaydigan o‘rin almashtirishlar soni?

0-topshiriqning ishlanishi

2.3.0. *n* ta elementdan berilgan ikkita elementi yonma-yon turmaydigan nechta o‘rin almashtirish yasash mumkin?

a va *b* elementlar berilgan bo‘lsin. Bu elementlar yonma-yon turgan o‘rin almashtirishlar sonini aniqlaymiz. Bunda birinchi hol *a* element *b* elementdan oldin kelishi mumkin, bunda *a* birinchi o‘rinda, ikkinchi o‘rinda, va hokazo (*n*-1)-o‘rinda turishi mumkin. Ikkinchi hol *b* element *a* elementdan oldin kelishi mumkin, bunday holatlar ham (*n*-1) ta bo‘ladi. Shunday qilib *a* va *b* elementlar yonma-yon keladigan holatlar soni 2* (*n*-1) ta bo‘ladi. Bu usullarning har biriga qolgan (*n*-2) ta elementning (*n*-2)! ta o‘rin almashtirishi mos keladi. Demak *a* va *b* elementlar yonma-yon keladigan barcha o‘rin almashtirishlar soni 2* (*n*-1)*(*n*-2)! =2*(*n*-1)! ta bo‘ladi. Shuning uchun ham izlanayotgan o‘rin almashtirishlar soni

n! - 2*(*n* - 1)! = (*n* -1)!*(*n* - 2)

Shu o‘rinda eslatib o‘tamiz BMI, magistrlik dissertatsiyasi yoki ilmiy ishingizda

$$P_n = n! \quad va \quad A_n^k$$

koeffitsiyentlarni hisoblashga to‘g‘ri kelsa, unda Excel dasturlar paketidagi mos ravishda **ФАКТР** va **ПЕРЕСТ** komandalaridan foydalanishlariz mumkin:

Masalan: P_{10}=10!=3628800 va A_{22}^7 =859541760





ekanligini tezlik bilan hisoblash hech qanday qiyinchilik tug‘dirmaydi.

2.4. Takrorlanuvchi o‘rin almashtirishlar

Teorema. Aytaylik $k_1, k_2, ..., k_m$ - butun manfiymas sonlar bo‘lib, $k_1 + k_2 + ... + k_m = n$ va A to‘plam n ta elementdan iborat bo‘lsin. A ni elementlari mos ravishda $k_1, k_2, ..., k_m$ ta bo‘lgan $B_1, B_2, ..., B_m$ m ta to‘plam ostilar yigindisi ko‘rinishida ifodalash usullari soni

$$C_n(k_1, ..., k_m) = \frac{n!}{k_1! * k_2! * ... * k_m!}$$

ta bo‘ladi.

$C_n(k_1, ..., k_m)$ sonlar ***polinomial koeffitsiyentlar*** deyiladi.

2.4.0. “Matematika” so‘zidagi harflardan nechta so‘z yasash mumkin?

2.4.1. “Kombinatorika” so‘zidagi harflardan nechta so‘z yasash mumkin?

2.4.2. Familiyangizdagi harflardan nechta so‘z yasash mumkin?

2.4.3. *a,b,c* harflaridan *a* harfi ko‘pi bilan 2 marta, *b* harfi ko‘pi bilan bir marta, *c* harfi ko‘pi bilan 3 marta qatnashadigan nechta 5 ta harfli so‘z yasash mumkin?

2.4.4. $(1+x)^n$ yoyilmasida x^5 va x^{12} hadlar oldidagi koeffitsiyentlar teng bo‘lsa, n nimaga teng?

2.4.5. $\left(\sqrt{2}+\sqrt[4]{3}\right)^{100}$ yoyilmasida nechta ratsional had mavjud?

2.4.6. Polinomial teorema yordamida $(x+y+z)^3$ yoyilmani toping?

2.4.7. $(x+y+z)^7$ ning yoyilmasida $x^2y^3z^2$ had oldidagi koeffitsiyent nimaga teng?

2.4.8. 8 ta fanning har biridan 3, 4, 5 baholar olish mumkin. Baholar yig‘indisi 30 ga teng bo‘ladigan qilib imtixonlarni necha xil usulda topshirish mumkin?

2.4.9. Abituriyent 3 ta fandan imtixon topshirishi lozim. Har bir imtixondan ijobiy baho (3,4,5-baholar) olgandagina, keyingi imtixonga qo‘yiladi. O‘qishga kirish uchun o‘tish bali 17 ball bo‘lgan bo‘lsa, abituriyent imtixonlarni necha xil usulda topshirishi mumkin?

2.4.10. $(1+2t-3t^2)^8$ yoyilmasida t^9 oldidagi koeffitsiyent nimaga teng?

Masala 2.4.11.-2.4.20 So‘z – o‘zbek alifbosidagi ixtiyoriy chekli harflar ketma-ketligidir. Quyida berilgan so‘zlardagi harflardan nechta so‘z yasash mumkin?

2.4.11. BISSEKTRISSA; **2.4.12.** PARABOLA; **2.4.13.** GIPERBOLA;

2.4.14. ELLIPS; **2.4.15.** SIMMETRIK; **2.4.16.** PARALEL;

2.4.17. PARALELOGRAM; **2.4.18.** PARALELOPIPED; **2.4.19.** REFLEKSIV;

2.4.20. TRANZITIV**.**

2.4.21. Mevalar korzinkasida 2 ta olma, 3ta nok, 4 ta apelsin bor. Har kuni bitta meva yeyish mumkin bo‘lsa, buni necha xil usulda amalga oshirish mukin?

2.4.22. Talabalar turar joyida 1 kishilik, 2, kishilik va 4 kishilik xonalar mavjud. 7 ta talabani necha xil usulda joylashtirish mumkin?

2.4.23. Shaxmat taxtasining birinchi gorizontalida oq shaxmat donalari komplekti: 1ta shox, 1ta farzin, 2 ta ot, 2 ta fil, 2 ta to‘rani necha xil usulda joylashtirish mumkin?

2.4.24. Beshta A harfi va ko‘pi bilan 3 ta B harfidan nechta so‘z yasash mumkin?

2.4.25. 7xil gul turidan 3 tadan yoki 5 tadan qilib nechta gul buketi yasash mumkin?

0-topshiriqning ishlanishi.

2.4.0. Misolning yechilishi. “Matematika” so‘zidagi harflardan nechta so‘z yasash mumkin?

k_1=2 (“m”- harfi), k_2 =2 (“a” – harfi), k_3 =2 (“t” - harfi), k_4=1 (“e” - harfi), k_5=1 (“i”-harfi), k_6=1 (“k”- harfi), n=10 (so‘zdagi harflar soni)

$$C_{10}(2,3,2,1,1,1) = \frac{10!}{2!*3!*2!*1!*1!*1!} = 151200$$

Shu o‘rinda eslatib o‘tamiz BMI, magistrlik dissertatsiyasi yoki ilmiy ishingizda ko‘p miqdordagi takrorlanuvchi o‘rin almashtirishlarni hisoblashga to‘g‘ri kelsa, unda Excel dasturlar paketidagi МУЛЬТИНОМ komandasidan foydalanish mumkin: Masalan $C_{10}(1,2,4,3) = \frac{10!}{1!*2!*4!*3!} = 12600$ ekanligini tezlik bilan



hisoblash hech qanday qiyinchilik tug‘dirmaydi.

2.5. Takrorlanuvchi guruhlashlar.

Teorema. n ta elementdan k ta elementli takrorlanuvchi guruhlashlar soni

$$f_n^k = C_{n+k-1}^{n-1} = C_{n+k-1}^{k}$$

ta bo‘ladi.

2.5.0. Bog‘dagi besh xil turdagi guldan 3 tadan qilib necha xil usulda buket yasash mumkin?

2.5.1. *0,1,2,3,4,5,6* raqamlaridan iborat DOMINO o‘yini toshlari nechta?

2.5.2. *0,1,2,…,k* raqamlaridan iborat DOMINO o‘yini toshlari nechta?

2.5.3. Qandalotchilik sexida 11 turdagi shirinlik mavjud. 6 ta bir xil yoki 6 ta har xil shirinlikni necha xil usulda tanlash mumkin?

2.5.4. Muzqaymoq do‘konida 8 xil turdagi muzqaymoq sotilayapti. 5 kishiga necha xil usulda muzqaymoq olish mumkin?

2.5.5. Asaka avtomobil zavodi tayyor mahsulotlar maydonchasida 15 xil rangdagi NEXIA avtomobillari turibdi. Mashina tashiydigan trallerga 8 ta mashina sig‘sa, necha xil usulda NEXIA avtomobillarini trallerga yuklash mumkin?

2.5.6. TATU da barcha viloyatlardan talabalar o‘qishadi. 5 ta talabadan iborat guruhni necha xil usulda tuzish mumkin?

Masala: Quyida berilgan tengsizliklar nechta musbat butun yechimga ega?

2.5.7. $3<x+y+z+v+w\le 7$

2.5.8. $6<x+y+z+v<10$

2.5.9. $5<x+y+z+v\le 8$

2.5.10. $11<x+y+z+v+w+t\le 14$

2.5.11. $6<x+y+z+v+w\le 10$

2.5.12. $9<x+y+z\le 12$

2.5.13. $8<x+y+z+v+w+t\le 12$

2.5.14. $3<x+y+z+v+w<6$

2.5.15. $4<x+y+z\le 9$

2.5.16. $10<x+y+z\le 14$

2.5.17. $2<x+y+z+v<5$

2.5.18. $5<x+y+z+v\le 8$

2.5.19. $2<x+y+z+v+w+t\le 5$

2.5.20. $6<x+y+z\le 9$

2.5.21. $5<x+y\le 9$

2.5.22. $2<x+y+z<5$

2.5.23. $3<x+y+z+v\le 7$

2.5.24. $8<x+y+z+v<12$

2.5.25. $2<x+y+z+v+w<6$

2.5.26. $3<x+y+z<7$

2.5.27. $11<x+y+z\le 15$

2.5.28. $5<x+y+z+v+w+t<10$

2.5.29. $7<x+y+z+v+w+t+m\le 11$

2.5.30. $9<x+y+z+v+w+t\le 12$

0-topshiriqning yechilishi.

2.5.0. Bog‘dagi besh xil turdagi guldan 3 tadan qilib necha xil usulda buket yasash mumkin?

$f_5^3 = C_{5+3-1}^{5-1} = C_{5+3-1}^3 = C_7^3 = \frac{7!}{3!*4!} = 35$ usulda buket yasash mumkin.

2.6. Kombinator tenglamalar

2.6.0. $12\,C_{x+3}^{x-1} = 55\,A_{x+1}^2$

2.6.1. $A_{2x-1}^{x-1} \cdot P_x = x \cdot P_{2x-1}$

2.6.2. $\left(C_x^0\right)^2 + \left(C_x^1\right)^2 + \left(C_x^2\right)^2 = 5A_7^2$

2.6.3. $C_{x-2}^{x-3} : C_x^{x-1} = A_{x-1}^{x-4} : 30$

2.6.4. $A_x^{x-3} = \left(C_{x-1}^{x-3} + C_{x-1}^{x-4}\right)\underline{P}_3$

2.6.5. $A_{x+1}^2 \cdot A_x^2 \cdot A_{x-1}^2 = \underline{P}_3 \cdot P_{x+1}$

2.6.6. $A_x^3 = P_{x-2} + C_x^4 - P_{x-1} = 39$

2.6.7. $A_x^4 \cdot P_{x-4} = 42 \cdot P_{x-2}$

2.6.8. $1{,}5 \cdot C_x^{x-2} = 0{,}5 \cdot A_{x+1}^{x-1}$

2.6.9. $P_x = C_x^{x-2} \cdot P_4 \cdot 2!$

2.6.10. $A_x^{x-6} = x \cdot C_{x-1}^{x-6}$

2.6.11. $120 \cdot A_{2x}^x = \left(\underline{P}_x\right)^2 \cdot C_{2x}^x$

2.6.12. $3 \cdot \underline{P}_x \cdot \underline{P}_5 = x^2 \cdot A_x^{x-4}$

2.6.13. $\underline{P}_x \cdot C_x^{x-4} = C_{x-2}^{x-4} \cdot C_x^{x-2}$

2.6.14. $A_{x+2}^7 \cdot \underline{P}_{x-5} = \left(\underline{P}_5 - 10\right) \cdot \underline{P}_x$

2.6.15. $X \cdot \underline{P}_{x+2} \cdot C_{x-1}^{x-3} = 3 \cdot \underline{P}_x \cdot C_{x+2}^2 \cdot A_{x-1}^2$

2.6.16. $\underline{P}_{x+5} = \underline{P}_2 \cdot \underline{P}_3 \cdot \underline{P}_5 \cdot A_{x+3}^{x-3}$

2.6.17. $\underline{P}_{2x+1} = A_{2x-1}^3 \cdot \underline{P}_{2x-4} \cdot 110$

2.6.18. $C_x^{x-3} : C_x^{x-1} = A_{x-1}^{x-4} : A_{x-2}^{x-4}$

2.6.19. $\left(C_5^x - C_4^x\right) \cdot A_5^x = x \cdot C_4^x \cdot C_5^x$

2.6.20. $C_{x+3}^{x+1} = C_{x+1}^{x-1} + C_{x+1}^x + C_x^{x-2}$

2.6.21. $\underline{P}_x \cdot C_{x+3}^x = A_{x+3}^x$

2.6.22. $A_x^3 + A_{x+1}^4 = \underline{P}_x \cdot C_x^{x-1} \cdot 0{,}7$

2.6.23. $\underline{P}_x + 4P_{x+5} = A_x^2 \cdot C_{x+1}^{x-1}$

2.6.24. $A_x^{x-1} \cdot C_x^{x-2} \cdot C_x^{x-3} \cdot C_x^{x-4} = \left(C_x^{x-1} \cdot C_x^{x-3}\right)^2 \cdot \underline{P}_x$

2.6.25. $C_x^{x-1} \cdot A_x^{x-3} = \underline{P}_x \cdot C_x^{x-3}$

0-topshiriqning ishlanishi.

2.6.0. $12\,C_{x+3}^{x-1} = 55\,A_{x+1}^2$

Tenglamani yechish uchun $C_n^k = \frac{n!}{k!*(n-k)!}$, $A_n^k = k!*C_n^k = \frac{n!}{(n-k)!}$ va x birdan katta natural son bo‘lishi mumkinligini e’tiborga olib, tenglamada qatnashgan mos koeffitsiyentlarni yuqoridagi formulalarga asoslanib yoyib chiqamiz:

$$12 * \frac{(x+3)!}{(x-1)!*(x+3-(x-1))!} = 55 * \frac{(x+1)!}{(x+1-2)!}$$

Soddalashtiramiz, surat va maxrajlarda qisqarishi mumkin bo‘lgan faktoriallarni qisqartiramiz.

$$12 * \frac{(x+3)*(x+2)*(x+1)*x}{4!} = 55 * (x+1)*x$$

Tenglamaning ikkala tomonini *x*(x+1)* ga qisqartiramiz, 12 bilan 4!=1*2*3*4=24 ni qisqartirib, tenglamada ayrim shakl almashtirishlarni amalgam oshirib, quyidagi ko‘rinishga olib kelamiz:

$$\frac{(x+3)*(x+2)}{2} = 55;$$

$$(x+2)(x+3) = 55*2 = 110 = 10*11.$$

Kvadrat tenglama yechimlari x_1=-13 bizning shartni (x>1) bajarmaydi Ø, x_2=8 yechim esa kombinator tenglamamiz yechimi bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. Т.А. Азларов ва бошк. Математикадан кулланма. «Укитувчи» нашриёти, Т., 1990.-352б.
2. Ф.А.Новиков. Дискретная математика для программистов. ЗАО Издательский дом «Питер», 2007
3. Г.П.Гаврилов, А.А.Сапоженко Задачи и упражнения по дискретной математике. –М.:ФИЗМАТЛИТ, 2005.-416с.
4. Я.М. Еруссалимский. Дискретная математика теория, задачи, приложения. –М.: «Вузовская книга», 2002.-268с.
5. И.И.Ежов и др. Элементы комбинаторики. –М.: «Наука», 1977.-80с.
6. С.Ю. Кулабухов. Дискретная математика. Таганрог, 2001. 150с.
7. Г.Г.Асеев и др. Дискретная математика. Учебное пособие.-Ростов н/Д. 2003.-144с.

INTERNET SAXIFALARI

1. *www.intuit.ru/department/ds/discrmath/*
2. http://www.uni-dubna.ru/~mazny/kurses/odm/lekcii/
3. http://www.lvf2004.com/dop_t2r1part2.html
4. http://www.mielt.ru/dir/cat14/subj266/file292.html
5. http://window.edu.ru/window/catalog?p_rid=28455
6. http://lib.rus.ec/b/259478
7. www.doc.ic.ac.uk/~iccp/papers/**discrete**94.pdf
8. http://calvino.polito.it/~tilli/matdiscreta/Discrete%20Mathematics.html

MUNDARIJA

Diskret matematika fanidan
oraliq nazoratlari uchun
topshiriqlar va ularni bajarish
uchun uslubiy ko‘rsatmalar.

Oliy matematika kafedrasining
majlisida (21.06.2011 39-bayonnoma)
muhokama qilindi va Telekommunikatsiya
fakulteti ilmiy-uslubiy kengashi
(22.06.2011. 52-bayonnoma)
tomonidan nashrga tavsiya qilindi

Tuzuvchilar: fiz.-mat.fanlari nomzodlari,
Dotsentlar: O‘.N. Qalandarov,
H.A. Abduvaitov,
O.A. Islomova.

Mas’ul muharrir: akademik F.B.Abutaliyev

Muharrir: